XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND TUMANI
K E N G A SH I

Samarqand t. 140300, Gulobod qo'rg'oni, 1-uy. Tel: (66) 612-51-89

2023 - yil 29 - dekabr VI-90-125-7-103-K/23 Samarqand tumani hokimligi

Samarqand tumanidagi Nayman mahallasini qayta nomlash to‘g‘risida

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-sonli qarori talablari asosida Nayman mahallasini qayta nomlash bo‘yicha 900 nafardan ortiq mahalla fuqarolarining murojaatlariga muvofiq fuqarolar yig‘ini Kengashining tuman komissiyasiga kiritilgan takliflari o‘rganib chiqildi.

Shunga ko‘ra, Samarqand tumani hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi tomonidan mahallani qayta nomlash bo‘yicha taklif tayyorlanib, Samarqand viloyati hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasiga hamda Respublika toponimika xizmatiga ekspert xulosasini olish uchun yuborildi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasi tomonidan olib borilgan o‘rganish natijasiga ko‘ra, shuningdek, tegishli qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqib, Samarqand tumani komissiyasining taklifi qonun talablariga muvofiq deb topilib, ijobiy xulosa olindi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari Samarqand tumani Kengashining oltinchi chaqiriq, to‘qsoninchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Samarqand tumani hokimi maslahatchisi B.Yarashevning “Samarqand tumanidagi Nayman mahallasini qayta nomlash to‘g‘risida”gi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Samarqand tumanidagi Nayman mahallasi nomi Yuqori Qaynama nomi bilan qayta nomlansin hamda belgilangan tartibda davlat reyestri bazasiga kiritilsin.

3. Samarqand tumani hokimining o‘rinbosarlari (F.Ganiyev, O.Abdullayev), Ichki ishlar bo‘limi (A.Raxmatov), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (Sh.Xasanov), Moliya bo‘limi (F.Misirov), Davlat xizmatlari markazi (S.Salohiddinov), Statistika bo‘limi (F.Jabbarov), Kadastrlar palatasi tuman filiali (S.Ro‘ziev), Kadastr agentligi tuman filiali (B.Artikov) bir oy muddatda mazkur qarorga asosan hujjatlarga o‘rnatilgan tartibda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bilan bog‘liq tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Belgilansinki, ushbu qaror ommaviy axborot vositalarida rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Samarqand tumani Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya (F.Uzoqov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari F.Ganiyevlar zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi **A.Umarov**